



Munisa KARIMOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti N.Imamov taqrizi asosida

ASPEKTUAL SEMANTIKA VA FE'LLARNING HARAKAT TARZI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada fe'llarning leksik-semantik tasnifi va ularning aspectual xususiyatlari tahlil qilinadi. Til tizimida fe'l markaziy o'rin egallab, harakat dinamikasini ifodalashning asosiy vositasi sifatida talqin etiladi. Maqolada inchoativ, ingressiv, intensiv, komplitiv kabi kichik guruhlar misollar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, ingliz tilidagi boshlanish va tugallanish fazalarini ifodalovchi fe'llarning semantic xususiyatlari tahlil qilinib, ularning izohli lug'atlardagi ma'nolari va qo'llanish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: fe'l, aspectual semantika, harakat tarzi, aksionallik, inchoativ, ingressiv, intensiv, komplitiv.

ASPECTUAL SEMANTICS AND THE ACTION OF VERBS: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Annotation

This article examines the lexico-semantic classification of verbs and their aspectual characteristics. In the language system, the verb occupies a central position and is interpreted as the main means of expressing the dynamics of action. The paper highlights, with examples, such subgroups as inchoative, ingressive, intensive, and completive. In addition, the semantic features of English verbs that express the phases of beginning and completion of an action are analyzed, and their meanings in explanatory dictionaries as well as their usage possibilities are revealed.

Keywords: Verb, aspectual semantics, manner of action, actionality, inchoative, ingressive, intensive, completive.

АСПЕКТУАЛЬНАЯ СЕМАНТИКА И ДЕЙСТВИЕ ГЛАГОЛОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается лексико-семантическая классификация глаголов и их аспектуальные характеристики. В системе языка глагол занимает центральное место и интерпретируется как основной способ выражения динамики действия. В статье на основе примеров освещаются такие подгруппы, как инchoатив, ингрессив, интенсив и комплетив. Кроме того, анализируются семантические особенности глаголов английского языка, выражающих фазы начала и завершения действия, раскрываются их значения в толковых словарях и возможности употребления.

Ключевые слова: Глагол, аспектуальная семантика, способ действия, акциональность, инchoатив, ингрессив, интенсив, комплетив.

Kirish. Jahon tilshunosligida fe'l sistemasiga oid bo'lgan aspektual kategoriyalar tadqiqi doirasida grammatik vid (tus/tur), harakat tarzi (aksionsart), aksionallik (fe'l leksemasining chegaralanganlik/chegaranmaganlik xususiyati) kabilarning grammatik ko'rsatgichlarini aniqlash, kontekstual semantikasini tahlil qilishga keng e'tibor qaratilib kelingan. Aspektuallikning bu xususiyatlari fe'l harakati kechimi bilan bog'liq bo'lib, funksional-semantik maydon va kontekstual semantika doirasida tahlil qilinishi, fe'lning aksional xususiyati, vid kategorial xususiyatlarga ega bo'lmagan tillar tizimida aspektual mazmunni namoyish etuvchi lisoniy vositalarni aniqlash hamda tillaro chog'ishtirish, aspektuallikning leksik, leksik-semantik, sintaktik, konseptual sathlari doirasida aksionallik (chegaralanganlik /chegaranmaganlik) harakat kechimi bilan bog'liq vaziyatlarni o'rganish va chog'ishtirish fe'l semantikasi masalalarini tadqiq qilish masalalari muhim ilmiynazariy ahamiyat kasb etadi. Dunyo tilshunosligida fe'llarning aspektual semantikasi funksional-semantik, kompozitsional, morfosintaktik kabi yondashuvlar tatbiqida o'rganilib kelinmoqda.

Umuman, fe'llar aspektual semantikasining umumiy xususiyatlari tilning turli sathlarida tadqiq etilgan bo'lsa-da, aspektual semantikani leksik, grammatik, sintaktik sathlarda, kontekstual semantikasini qiyosiy tadqiq etish, fe'llarning

chegaralanganlik / chegaralanmaganlik xususiyatlari aspektual semantikani tasniflash, fe'l birliklarining semantik jihatdan ochilmagan ma'nolarini yoritish, fe'llarning aksional xususiyatlarini aniqlash jarayonida ularni funksional-semantik maydonda faollashuvi orqali ingliz va o'zbek tillarida aspektual ma'nolarini aniqlash, shakl va mazmun yaxlitligini ilmiy baholashga, hamda ilg'or nazariyalarni yaratishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hozirgi zamon tilshunosligi bilan bir qatorda madaniyatlararo aloqa ko'lamini kengaytirishda muhim rolni o'taydi.

Tilning asosiy o'zagi fe'l hisoblanadi. Ma'lum xorijiy tilni o'rganishda birinchi e'tibor fe'llarning qo'llanishi, semantik xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bu esa o'rganilayotgan tildaharakat dinamikasini ifodalashini aniqlashga ko'maklashadi. Xususan, ingliz tili fe'l semantikasining dominant xususiyatlaridan biri bu undagi aspektual kategoriyadir. Tillarda fe'llarning leksik-semantik guruhlariga ajratish keng tus olgan. Fe'llarni leksik-semantik tasniflash ularni kesim vazifasida qo'llanilganda va ularni kesim vazifasidagi semantik ma'nolarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Fe'llarni bu kabi tasniflash alohida-alohida tillarda olib borilgan va bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida aspektuallikni grammatik ifodasi, funksional-semantik maydonda voqelanishi masalasini o'rgangan Vendler, Dowty,

Yu.S.Maslov, A.V.Bondarko, B.M.Balin, M.A.Shelyakin, B.X.Rizayev, B.Comrie, D.R.Dowty, Ö.Dahl, C.Tenny kabilar aspektologiyaga oid keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan olimlar sifatida ma'lum. Fe'llarning aspektual semantikasini voqelantiruvchi birliklarning konseptual mazmuni qiyosiy-tipologik jihatdan A.B.Shluinskiy, V.A.Plungyan, Ye.V.Paducheva, Yu.D.Apresyan, S.G.Tatevosov, H.Filip, M.Krifka, B.Levin, H.Rappaport, S.Rothstein kabilar tomonidan o'rganilgan.

Fe'llarning harakat tarzi leksik-grammatik kategoriya sifatida baholanadi va unifersal hodisa sanaladi. Ammo, u tillar kechimida harakat tarzi turlarida farqlanishi mumkin. Misol uchun rus Yu.Maslov, V.Vinogradovlar 13 ta harakat tarzi turlarini farqlaydi. V. Gak esa fransuz tilida 41 ta harakat tarziturini aniqlaydi. Ingliz tilida esa, qayd etilganidek 4 ta guruh doirasida ish olib borish keng tus olgan. Biz Z. Vendlerning ushbu tasnifidan farqli ularoq harakatning ichki dinamikasini e'tiborga olgan holda V. Gak, Yu.Maslov nazariyalariga asoslangan holda tahlilni amalga oshiramiz. Shunday qilib, harakattarzi (aspektsiz aspektuallik) ko'pgina tillarda mavjud bo'lib, manbalarda "aksionallik", ba'zilarida

esa "aksionsart" deb nomlanadi. "Aksionallik" tushunchasi S. Agrel tomonidan kiritilgan bo'lib (aksionsart), u fe'l semantikasining turli tuman guruhlash va tasniflashga asoslanadi. Aksionsart rus tili manbalarida "способы действия" ya'ni harakat tarzi atamasi bilan ham yuritiladi. Harakat tarzi ob'ekti harakat fe'llarini uchta va o'z navbatida ular ham to'qqizta kichik guruhchalarga tasniflanadi. Ob'ektsiz harakat fe'llari oltita hamda ular ham jami bo'lib yigirma sakkizta guruhchalarni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Boshlanishni ifodalaydigan harakat tarzi (ingressiv kichik tur, harakatning paydo bo'lishida natijani bildiradi va harakat kechimini boshlanishi anglatadi).

Inxoativ-harakatning boshlanishi darajasini bildiradi (startga) I started after her (ie followed her) to tell her the news; We set off for London just after 10 o'clock.

Ingressiv-harakatning boshlanishi va rivojlanishi; (unloadedga) Stretcher-bearers came in all the time, put their stretchers down, unloaded them and went away (Hem, 72).

Intensiv-harakatning boshlanishi va tez rivojlanishi; (bounserglared ga) The bounser glared and ran away.

Ish harakatning nomi	Ishharakatning bajarilishi	Misollar
Inxoativ	Harakatning boshlanish darajasini bildiradi	I got in and started the engine, also turning on the radio. When the music began I wished that there might be more switches to turn on, for it was somehow not enough. [Saul Bellow Humbolt's Gift. 34 p]; "You come over here," he said. I started willingly to cross the street. He made me stop in the middle. [Saul Bellow Humbolt's Gift. 42 p].
Ingressiv	Harakatning boshlanishi va rivojlanishi	"You're broke? I thought you were loaded." "I've been unloaded." "It was bad of me then not to send the fifteen hundred dollars. I assumed it would be a trifle." [Saul Bellow Humbolt's Gift. 241 p]; She answered by telling me, like Ulick, that I must begin to work again. "Only for God's sake don't write that pedantic stuff you're unloading on me lately," she said [Saul Bellow Humbolt's Gift. 204 p];
Intensiv	Harakatning boshlanishi va tez rivojlanishi	Where a stovepipe had once entered the wall there was a gilt-edged asbestos plug. The cats came and glared through the window, humorless. Humboldt and Kathleen took turns letting them in [Saul Bellow Humbolt's Gift. 178 p]; "You irritate the shit out of me," said Cantabile. "I'm about to hit the ceiling." Incensed, he glared at me. Then he made a further effort to be reasonable. "Humboldt has some family yet, doesn't he? I asked Kathleen. There's an old uncle in Coney Island." [Saul Bellow Humbolt's Gift. 14 p].

Ingliz tilidagi harakatning boshlanishini anglatuvchi fe'llarining izohli lug'atlarda keltirilgan ma'nolariga e'tibor qaratamiz: to start harakatning boshlanish fazasini ko'rsatadi, to leave, to depart –obyekt o'z joylashgan o'rini tark etish ma'nosiga ega hisoblanadi: When did you leave London (Oxford, II. 1992; 209)?, to set off -maqsad yuzasidan biror boshlang'ich punktni tark etishning natijaviyligini bildiradi, to dash off, to rush -intensiv harakatga kirishmoq, to advance -boshlang'ich punktdan oldinga intilganlik, to step -biror makondagi bir qadaml harakat, qadam qo'yimoq: Step inside, please (Oxford, III. 1992; 246). Bu ma'nolar keltirilgan fe'llarning umumiy semantikasi hisoblanib, obyektning biror muhitdan yiroqlashishi, muhitni tark etish yoki biror muhitdan boshqa yo'nalishida muayan maqsad bilan harakatlanishini anglatadi.

Komplitiv harakat tarzi (harakatning tugallanish fazasini bildiradi) u o'z navbatida tasvirlanayotgan harakatning butun bajarilish jarayonini qamrab olgan holda quyidagi kichik guruhlarga ajratiladi: Perfektiv-harakatning tugallanish jarayonini anglatadi; We pulled in and got some. Starving, Ulick ate pieces of marlin before the fish was removed from the scale. Before it could be wrapped he had already pulled off the tail-end. [Saul Bellow Humbolt's Gift. 199 p].

Rezultativ-tugallangan harakatning natijasini bildiradi; This very neighborhood produced them. Informers to the metaphysical-historical police against fellows like me whose hearts ache at the destruction of the past. But I had come here to be melancholy, to be sad about the wrecked walls and windows, the missing doors, the fixtures torn out, and the telephone cables ripped away and sold as junk.[Saul Bellow Humbolt's Gift. 39 p].

Iterativ harakat tarzi: neytral guruh sifatida ko'p marotabalik, harakatning bir "kvant"ini ifodalaydi. Harakat

metaforasi asosan ikki turga bo'linadi: fazali va prosessual. Faza harakati boshlanish yoki davomiy vaziyatdagi takrorlanish kuzatilsa, prosessuallik harakati harakat yunalishining markazi, ya'ni harakat va hodisalarning takrorlanishi hisoblanadi va skanirlashtirish yo'li orqali amalga oshiriladi, hamda fe'l harakati yoki vaziyatlarga qarab o'ziga xos kichik guruhlarni tashkil etadi.

Voqelikning mazkur ifodalarini hosil qiladigan leksik-grammatik vositalar harakat tarzi kategoriyasida o'rganiladi. Harakat tarzi kategoriyasi universal hodisa bo'lib, barcha hodisa va jarayonlar tiltizimidagi leksik va grammatik vositalar muvofiqligiga asoslanadi. Bu esa tillar kesimida harakat tarzini hosil qiluvchi leksik va grammatik birliklari farqlanishidan dalolat beradi. Bunga fe'llarning semantic xususiyatlari kontekst doirasida turli til vositalari ta'sirini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Ingliz tiliga xos bo'lgan xususiyat sifatida harakat tarzi turli tuman fe'lli iboralar va obyekt hamda ob'ekt argumentlarining miqdoriy ko'rsatgichlari muhim o'rin tutadi. Shu asosda predika tanglatadigan ma'nolar harakat tarzi kategoriyasi doirasida tasniflanadi. Nutq jarayonida qo'llaniladigan fe'l harakatlarning boshlanganlik, tugallanganlik, davomiy, takroriy, natijaviy, durative, lahzalik, karralik vaziyatlarni ifodalashi tanlanadigan fe'llarning leksik-grammatik tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa. O'zbek tilida harakat tarzi kategoriyasi yetakchi va ko'makchi fe'l birikmalari to'liqsiz fe'l va leksik vasitalar, shu semantik belgilarga ega bo'lgan so'zlar, grammatik shakllar yordamida vujudga keladi. Bu kabi ifodalar harakat tarzi kategoriyasini shakllantiradi. Ikkala tilda ham leksik birliklarning sof semantik va leksik xususiyatlariga asoslanilgan holda, shuningdek fe'llarning aksional xususiyatlariga tayangan holda harakat tarzi tasnifi amalga oshiriladi. Ikkala tilda ham leksik vositalar birikuvi orqali

vujudga keladigan semantik ma'nolar asosida harakat tarzi turlari ajratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претрита. "Фан". -Ташкент, 1999. – 121 с.
2. Агрель С. О способах действия польского глагола // Вопросы глагольного вида. М., 1962. С. 35-38.
3. Бондарко А. В. Теоретические проблемы русской грамматики. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2004. – 208 с.
4. Насилов Д.М. К характеристике количественной аспектualityности в узбекском языке. // Сов. Тюркология. –Баку, 1985 № 1. –С. 64-70.
5. Smith C. S. Modes of Discourse. The Local Structure of Texts. Cambridge University Press, 2003. –336 p.
6. Vendler L. Verbs and times // Der englischeAspekt./Ed. By A.Schopf. –Darmstadt, 1974. –P. 217-234.